

TILNI O'RGANISHDA GRAMMATIK TUSHUNCHALARNING O'RNI VA UNI O'RGATISH YO'LLARI

Masharipova Nodira Raxmanovna

TAFU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada grammatika til tizimining asosiy tarkibiy qismi, u til birliklarining tuzilishi, o'zaro bog'lanishi va qo'llanish qonuniyatlari ekanligi, grammatik tushunchalarni o'rgatish o'quvchilarda to'g'ri nutq tuzish, fikrni aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantish, bu jarayon puxta rejalashtirilgan metodik yondashuvlar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Grammatik tushuncha, didaktik tamoyillar, bosqichlar, metod, mashqlar tizimi, pedagogok texnologiya.

МЕСТО ГРАММАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА И СПОСОБЫ ИХ ПРЕПОДАВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается тот факт, что грамматика является основной составляющей языковой системы, что она представляет собой структуру, взаимосвязь и применение законов языковых единиц, что обучение грамматическим понятиям помогает учащимся формировать навыки правильной речи, ясного и беглого выражения мысли, и что этот процесс тщательно спланирован с использованием методических подходов.

Ключевые слова: Грамматическое понятие, дидактические принципы, этапы, метод, система упражнений, педагогическая технология.

THE PLACE OF GRAMMATICAL CONCEPTS IN LANGUAGE LEARNING AND WAYS OF TEACHING THEM

Annotation. The article discusses the fact that grammar is the main component of the language system, that it is the structure, interconnection and application laws of language units, that teaching grammatical concepts helps

students to form the skills of correct speech, clear and fluent expression of thought, and that this process is carefully planned methodological approaches.

Keywords: Grammatical concept, didactic principles, stages, method, system of exercises, pedagogical technology.

Insonlar o'rtasidagi kommunikativ muloqot vositasi til hisoblanadi. Til so'zlovchining his-tuyg'ularini ifodalovchi ekspressiv hamda avloddan avlodga yetkazib berishda akkumulyativ vazifalarini bajaradi. Til dunyoni anglash, ma'lumotlarni to'plash va boshqa odamlarga yoki keyingi avlodlarga yetkazish vositasi¹ sifatida kognitiv vazifa bajaradi, N.Mahmudov ta'biri bilan aytganda, til insonga Allohni va olamni anglash uchun berilgan². Grammatika til tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u til birliklarining tuzilishi, o'zaro bog'lanishi va qo'llanish qonuniyatlarini o'rganadi. Grammatik tushunchalarni o'rgatish o'quvchilarni to'g'ri nutq tuzish, fikrni aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli bu jarayon puxta rejalashtirilgan metodik yondashuvni talab etadi. Grammatik tushuncha — bu til birliklari va ularning grammatik xususiyatlari haqidagi umumlashtirilgan bilimdir. Bu tushunchalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- So'z turkumlari (ot, sifat, fe'l va boshqalar)
- Morfologik kategoriyalar (zamon, shaxs-son, egalik)
- Sintaktik birliklar (so'z birikmasi, gap, gap bo'laklari)

Grammatik tushunchalar abstrakt xarakterga ega bo'lib, ularni o'zlashtirish uchun o'quvchilarda tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi kerak. Grammatikani o'rgatishdan asosiy maqsad o'quvchilarda grammatik bilimlar asosida to'g'ri va ravon nutq shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Grammatik qoidalarni tushuntirish ;
- Til birliklarini tahlil qilishga o'rgatish ;

¹ <https://4brain.ru/blog/language-and-thinking/>

² Mahmudov N. O'zbek tili xalq ruhining ko'zgusi // "Sog'lom avlod uchun". – Toshkent. 2016, 9-son, - B. 37.

<https://scientific-jl.com/>

- Amaliy nutqda grammatik bilimlarni qo'llash ;
- Mustaqil fikrlash va nutq tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Grammatik tushunchalarni o'rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

1. Onglilik va faollik - O'quvchilar qoidalarni tushunib, ongli ravishda qo'llashlari kerak.
2. Izchillik va tizimlilik - Mavzular oddiydan murakkabga qarab ketma-ketlikda beriladi.
3. Ko'rgazmalilik - Jadval, sxema, diagramma va misollar orqali tushuntirish samaradorlikni oshiradi.
4. Mustahkamlash - Har bir yangi mavzu mashqlar orqali mustahkamlanadi.
5. Individual yondashuv - Har bir o'quvchining qobiliyati va bilim darajasi hisobga olinadi.

Grammatik bilimlar bosqichma-bosqich shakllantiriladi va bu beshta bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Kuzatish. O'quvchilar misollar asosida til hodisalarini kuzatadilar.

2-bosqich: Tahlil. Misollar tahlil qilinib, umumiy belgilar aniqlanadi.

3-bosqich: Umumlashtirish. O'quvchilar o'zlari qoida chiqaradilar yoki o'qituvchi yordamida shakllantiradilar.

4-bosqich: Mustahkamlash. Mashqlar orqali yangi bilimlar mustahkamlanadi.

5-bosqich: Qo'llash. O'quvchilar bilimlarini yozma va og'zaki nutqda qo'llaydilar.

Darsliklardagi grammatik qonuniyatlarni o'rgatish ona tili ta'limida pedagogik mahoratni talab etadi. Tilshunos ustozimiz L.R.Raupova o'zbek adabiy tili mazmunida tilshunoslikning ilmiy nazariy asoslarini o'rgatish nazarda tutilishini, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ta'kidlaydi.³ Ma'lumki, har bir dars mashg'uloti uch maqsadga erishishga qaratilgan: o'rgatish, ya'ni bunda yangi mavzuning bayoni ta'limiy maqsad, mavzuni hayotga bog'lab tarbiyaviy ta'sir etish, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsad o'tilayotgan

³ L.Raupova O'zbek struktural tilshunosligi asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsiya-ziyo", 2019.

<https://scientific-jl.com/>

mavzuni savol-javob asosida mustahkamlash.⁴ Nazariy qismni o'quvchiga yetkazib berishda usul va yondashuvlarni to'g'ri tanlamoq zarur. O'rganilgan tushunchani yanada anglamoq uchun topshiriq hamda mashqlarning o'rni katta hisoblanadi. Mashqlar grammatikani o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

1. Tanish mashqlar - Qoidani tushunishga yordam beradi.
2. Qayta ishlab chiqish mashqlari - Gaplarni o'zgartirish, to'ldirish, moslashtirish.
3. Ijodiy mashqlar: Matn tuzish; hikoya yozish; dialog yaratish.
4. Tahliliy mashqlar - Gapni grammatik tahlil qilish.

Grammatik xatolar ustida ishlash, ayniqsa o'quvchi o'zlashtirayotgan qonuniyatlarni tahlil qilishga keng imkoniyat yaratadi. Aynan anglay olmay qolgan o'rinlarini qayta tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va o'rganilgan bilim asosida nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay oladi. Individual tahlil har bir o'quvchining o'z ustida ishlashiga, shaxsiy xatolarini anglab yetishiga va ularni tuzatish choralarini ko'rishiga yordam beradi. Bu jarayon o'z-o'zini rivojlantirish, mas'uliyatni his qilish va kelajakda yanada samaraliroq ishlash uchun muhim ahamiyatga ega. Xatolar bilan ishlash samarali o'qitishning muhim qismi: Xatoni aniqlash > Sababini tushuntirish > To'g'ri variantni ko'rsatish > Takroriy mashqlar orqali mustahkamlash

Xatolarni jamoaviy va individual tarzda tahlil qilish foydali, chunki bu yondashuv har bir kamchilikni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish imkonini beradi. Jamoaviy tahlil jarayonida odamlar o'z fikr va tajribalari bilan o'rtoqlashib, muammoning chuqurroq sabablarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa umumiy o'zlashtirish sifatini oshiradi va bir xil xatolarning takrorlanishining oldini oladi.

Ona tili ta'limida darslikda berilgan grammatik qoidani o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi. Bu usullar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Interaktiv taqdimotlar, onlayn testlar, mobil

⁴ G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomuradova A., Allavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. T.: T. Fan va texnologiya 2012. – 67 b.

ilovalar, video darslar, gamifikatsiya (o'yin orqali o'rganish) kabi vositalardan samarali foydalanish orqali o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Shuningdek zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'qituvchiga darsni samarali tashkil etish, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli hamda mazmunli qilish imkonini beradi. Darsni tashkil etishda o'qituvchining roli nihoyatda katta hisoblanadi, chunki o'qituvchi: yo'naltiruvchi, motivator, tashkilotchi, baholovchi bo'lishi kerak. U o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishi lozim.

Xulosa. Grammatik tushunchalarni o'rgatish murakkab, ammo tizimli yondashuv orqali samarali amalga oshiriladi. Nazariya va amaliyot uyg'unligi, interaktiv metodlardan foydalanish va individual yondashuv orqali o'quvchilar grammatikani chuqur o'zlashtiradilar. Natijada ular o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va ravon ifodalay oladigan shaxslar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'zbek tili xalq ruhining ko'zgusi // "Sog'lom avlod uchun". – Toshkent. 2016, 9-son, - B. 37.
2. L.Raupova O'zbek struktural tilshunosligi asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsiya-ziyo", 2019.
3. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomuradova A., Allavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. T.: T. Fan va texnologiya 2012. – 67 b.
4. Xo'jayev M., Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Jalolov J., Umumta'lim maktablarida innovatsion metodlar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.

Internet manbalari

1. <https://4brain.ru/blog/language-and-thinking/>
2. www.pedagog.uz